

22 aprel- Butunjahon yer kuni



20.04.2023

22 aprel- Butunjahon yer kuni

Yer umummilliy boylik, uni asrab-avaylash barchamizning burchimizdir. "22-aprel - Butunjahon yer kuni" munosabati bilan joriy yilning 18 va 21-aprel kunlari universitetimizda "O'zbekistonda yer resurslarini boshqarishning innovatsion yondashuvlar, istiqbol va vazifalar" mavzusida ilmiy amaliy seminar hamda iqtidorli talaba-yoshlar o'rtaida turli tanlovlardan ko'rgazmalarga start birildi.



Ushbu tadbir har yili universitetimizda 18-21 aprel kunlari "Sayyoramizga sarmoya kirit" shiori ostida, talaba-yoshlar o'rtaida tanlov asosida tashkil qilinadi. Tanlovda "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigattsiya va agrotexnologiyalar instituti talabalari ham ishtirok etishdi. Kecha tanlovning birinchi kuniga barcha talaba-yoshlar "GeoScience" ilmiy maqolalari faol bo`lishdi.



Bugun tanlovnin ikkinchi kuniga talabalar "GeoMovie" vedeoroliklar bilan faol ishtirok etishdi. Ertaga tanlovlarning "GeoMarfon" jamoalar bellashuvi, "GeoPicasso" rasmlar tanlovi rejalashtirilgan. Ushbu tadbirni o'tkazishdan maqsad keng jamoatchilikning, xususan yoshlarning e'tiborini yer resurslarini barqaror boshqarish va ulardan oqilona foydalanish, yerni muhofaza qilish bilan bog'liq dolzarb muammolar hamda yer resurslarini saqlash borasidagi islohotlarga qaratilgan. G'olib bo'lgan talabalar 21 aprel kuni taqdirlanadi.



Bugun tanlovning ikkinchi kuni bo'lishiga qaramasdan har bir fakultetlardan ijodkor, tashabbuskor, bilimga chanqoq talabalar o'zlarining ijodiy ishlari, fotosuratlar, ilmiy maqolalar hamda "GeoMarfon" jamoalar bellashuvi bilan faol ishtirok etishdi. Barcha ishtirokchilarga omad tilaymiz.



YRK fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H. Eshova axboroti